

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA OILA VA MAKTAB O'RТАSIDАГИ МУНОСАБАТЛАРДА О'З МАЖБУРИYATLRIGA MAS'ULIYATLILIK МУНОСАБАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Ochilova Gulruxsor Odilovna

Buxoro pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila, maktab va mahalla o'rta sidagi o'zaro munosabatlarning yangi konsepsiysi haqida ma'lumot berilgan. Maqolada, shuningdek, ota-onalar, o'qituvchilar va maktab o'rta sidagi hamkorlikning samaradorligi va afzallikkari muhokama qilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oila jamiyat, o'qituvchi, maktab, ota-ona, sifat, hamkorlik, ta'lif.

Inson atalmish zotning tug'ilib, kamolga yetishi uchun ozmuncha vaqt yetmaganidek, uning shaxs sifatida kamol topishida, shu yurt, qolaversa, oilasiga sodiq farzand bo'lib voyaga yetishiga ko'pchilikning mehnati „singadi“. Jumladan, inson ma'lum bir oilada tug'ilib, tarbiyalana boshlaydi. Uning kamol topishida keyingi muhim vazifa maktabning zimmasiga tushadi. Shuningdek, jamoatchilik ham bu vazifadan chetda qolmaydi. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan xalqimiz o'zining ta'lif-tarbiyaga oid ulkan merosiga ega. Bu meros bugungi avlodni insonparvarlik, mehr-muhabbat, oqibat, mehnatsevarlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Har bir inson dunyoga kelar ekan, uning insoniyligi, axloq-odobi, xulq-atvori dastlab o'z oilasida shakllanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, o'z oilasiga mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirish har bir ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning Vatan oldidagi burchidir. Barkamol shaxsni voyaga yetkazish uchun, eng avvalo, oila, mahalla, maktab, jamiyat va davlat hamkorligini yuqori pog'onada ko'rish lozim.

Oila jamiyatning asosi, mahalla — milliy qadriyatlar beshigi. Oila muhiti farzand tarbiyasida eng muhim va dastlabki bo'g'in hisoblansa-da, u shaxsni to'liq tarkib toptira olmaydi. Ana shunda maktab va mahallaga ehtiyoj seziladi. Bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi, didiga ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biridir. Oilada kamolga yetib borayotgan farzand atalmish ne'mat, eng avvalo, shu oilaning azaliy qadriyatlariga, urf-odat va an'analariga to'la amal qilmog'i, qolaversa, ota-onaning o'zi farzandiga ibrat bo'la olishi lozim. Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda maktabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalgalashirib bo'lmaydi. Estetik, axloqiy va tarbiyaviy sifatlar kundalik hayot ehtiyojiga

aylanib, ular oilaviy ijtomoiy tarbiya orqali tarkib toptiriladi. O‘z o‘quvchilar jamoasini uyuştira olgan, jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo‘naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma’muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo‘lga krita oladi. O‘qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta’minlay olmaydi. Bu o‘rinda tarbiyachining o‘zini-o‘zi tarbiyalashi lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. O‘ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish maqsadida ularga qat’iy talablar qo‘yish uchun ma’naviy huquqqa ega bo‘ladi. Maktabni oila bilan bog‘lovchi vosita — bu o‘qituvchidir.

O‘quvchilar bilan ishlash, ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faoliyklarini ta’minlash orqali ota-onalarga ta’sir ko‘rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada maktab va oila aloqasini ta’minlovchi ota-onalar majlislari, bolalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamaoa bo‘lib hal etish kabilarning rolini inkor etib bo‘lmaydi. Jumladan, „Bolangizning qanday o‘qishini bilasizmi?“, „Bolangizning odobi haqida suhbatlashaylik“, „Mustaqil hayot bo‘sag‘asida“ kabi mavzularda olib boriladigan suhbatlar ota-onalarning o‘z bolalari haqida, ularning kelajagi haqida qayg‘urishlariga sabab bo‘ladi. Maktabda o‘qitiladigan darslar, ularning mazmuni va eng asosiysi, shu ma’lumotni o‘quvchiga yetkazib beruvchi o‘qituvchining xulq-atvori, kiyinishi, hattoki har bir hatti-harakati ham bola dunyoqarashi shakllanishiga ta’sir etuvchi omildir. Bola insoniy xislatlarni, ezgulikni, odamiylikni, yaxshilik va yomonlikni, eng avvalo, oiladagi kattalarning, ustozlarining hatti-harakatidan o‘rganadi. Ota-onalar bilan bir qatorda tarbiyachio‘qituvchilar o‘z xulq-atvori bilan bolalar hurmatiga sazovor bo‘lishlari, ularning hayot yo‘lida o‘rnak ko‘rsatishlari kerak. Shunday muhitda tarbiyalangan bolagina ota-onani, qolaversa, o‘z ustozlarini hurmat qiladigan, mahallada o‘zidan kichikni izzatlash, kattalarni hurmatlashni o‘z o‘rniga qo‘yadigan, xalqparvar bo‘lib voyaga yetadi. Xalq ta’limi vazirligining 2004-yil 26-fevralda „Oila, mahalla, maktab“ to‘g‘risidagi Konsepsiysi qabul qilindi. Bu Konsepsiyyada belgilab berilgan vazifalarini hal qilish uchun Respublikamizdagi har bir davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda „Jamoatchilik maslahat kengashi“ tuzilib, joylarda tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishlash, ularning ta’lim-tarbiyasiga va „Oila, mahalla, maktab“ Konsepsiyasini amalda joriy etishga e’tibor qaratildi. Kengash o‘z oldiga:

- mahallalarda bolalarning dam olishlari, qiziqarli ish bilan shug‘ullanishlariga imkoniyat yaratish;
- mahallalarda tarbiyaning ta’sirchanligini oshirish;
- homiy tashkilotlar yordamida mahallalarda sport sog‘lomlashtirish maydonchalarini tashkil etish;
- yoshlarda milliy urf-odatlar, azaliy udumlar, tarixiy an’analarni o‘rganish;
- maktab, jamoatchilik, mahalla ahli hamkorligida tadbir o‘tkazish;

- ijtimoiy harakati va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda yordam berishni maqsad qilib qo‘yan.

Oilada bolani to‘g‘ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri — tarbiyatagi birlikdir. Bunday ulkan mas’uliyatni, sharaflı ishni oila, məktəb, mahalla, kəng jamoatchılık bilan hamkorlikda olib borish muhim o‘rin egallaydi. Umumta’lim məktəblarida o‘quvchilarning bo‘s sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- O‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlik darajasini ko‘tarish;
- Kino, teatr, konsert va ko‘rgazmalarga borish;
- Sayohatlar, sayillar, sport musoboqlari tashkil etish;
- Tanlovlар, tarbiyaviy tadbirlar, bayramlarda ishtirok etish;
- Milliy xalq hunarmandchiligi to‘garaklari tarmoqlarini kengaytirish, xalq ustalarini to‘garak ishiga jalb qilish, ushbu to‘garaklarni ko‘proq məktəblar, mahallalar, ijodiy ustaxonalar qoshida tashkil etish ishlariga alohida e’tibor berish;
- Barcha o‘quv fanlari asosida to‘garaklar tashkil etish va unga tarbiyasi og‘ir bolalarni jalb qilish;
- O‘quvchilar iqtidorini yanada takomillashtirish maqsadida turli ommaviy tadbirlar, musobaqlar va ko‘rik tanlovlar o‘rkazish yo‘li bilan boy madaniy merosimizga hurmat, ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash. Sinf rahbarlari, ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, məktəb direktorlari, bolalar yetakchilari məktəbda ijtimoiy-pedagogik, tarbiyaviy ishlarni olib borishda o‘tkaziladigan tadbirlarning tashkilotchilaridirlar.

Insonning qanday kishi bo‘lib yetishishi ko‘p jixatdan oiladagi tarbiyaga, ota-onaning mas’uliyatiga bola tarbiyasining umumiyligini qonuniyatlarini yaxshi bilib, hayotda ularga qanchalik amal qilinishiga ham bog‘liq. Jamiyatda bola tarbiyasi ota-onalarning shaxsiy ishi bo‘lmay, balki ularning ijtimoiy vazifasidir. Ota-onalar o‘z bolalarining tarbiyasi uchun jamiyat oldida javobgardirlar. Shaxsning qadr-qimmati uning jamiyatga keltiradigan foydasi bilan baholanadi. Ota-onalar o‘z bolalarining asosiy tarbiyachilari hisoblanadilar. Shuning uchun ular farzandlarini o‘z xalqining eng yaxshi urf-odatlari va oilaviy an’analari ruhida oljanaob fazilatli, bilimdon, madaniyatli shaxs kilib tarbiyalashlari kerak.

Oila bilan məktəb hamkorligi barkamol inson tarbiyasidagi muhim omillardan biridir, məktəbdagi o‘quv tarbiya ishlarining yuqori saviyada bo‘lishi o‘quvchilarni tarbiyalangan darajasi ota-onalariga bog‘likdir.

Məktəblarning oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo‘lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avval erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, xilma-xil va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shakl va usullar yordamida rejali va izchil ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolalarni har kuni kuzatuvchi, ularning rivojlanishida ijobiy va salbiy tomonlarini sezuvchi va ota-

onalarga bolaga ta'sir qilishning eng samarali usularini maslahat beruvchi tarbiyachilar oila bilan juda ko'p xilma-xil ishlarni olib boradilar.

Maktab muassalarining ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bola yashab turgan oilani o'rganish, ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rmatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. O'qituvchi oilaga tekshiruvchi sifatida emas, balki maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi.

O'qituvchining oilaga borishidan asosiy maqsadi bola tarbiyalanayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa ota-onalarga yordam ko'rsatishdir. Bolalarni uylariga borib ko'rish ishi ma'lum maqsad asosida tashkil etilgan oilaviy tarbiya bilan tanishish, bolaning oiladagi xulqining o'ziga xos xususiyatlarining aniqlashdan iborat bo'lib qolmay, balki ota-onalar bilan yakkama-yakka va jamoa tarzida tashkil etiladigan ishlarning mazmunini, ularning turli shakllarini belgilab olishga ram imkoniyat tug'diradi. Oilani borib ko'rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odob bilan o'tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlarini ochib berilsa, ota-onalarning o'qituvchiga bo'lgan hurmati va ishonchi ortadi.

O'qituvchi suhbat davomida shaxsiy kuzatishlar, ota-onalarga, oilaning boshqa a'zolariga va bolaga berilgan savollar orqali bolani, uning oilasini yanada yaxshiroq bilib olishga imkon beruvchi o'ziga zarur ma'lumotlarni oladi. Bularning hammasi bola tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tashrif buyurish haqida ota-onalarni oldindan ogohlantirish kerak, bunda oila uchun, o'zi uchun qulay kun tanlanadi. Suhbat vaqtida hech qanday yozuv olib bormaslik, ota-onalar bilan keskin, nasihatgo'ylik ohangida gaplashmaslik zarur, faqat maslahat, tilak, taklif kiritish mumkin. Oilani borib kurishda olingan taasurotlarni kalender rejaning «Tarbiyaviy ishlarni hisobga olish» ustuniga yozib qo'yish lozim.

Oilani borib ko'rishning maqsadi va mazmuni tarbiyachining rejasida, hisobida va maxsus kundaligida aks ettirilishi kerak. Oilani yiliga kamida ikki marta borib ko'rish tavsiya etiladi.

Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar

Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat – bolarni ertalab qabul qilish va junatish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular o'qituvchi va ota-onalarning bir-biri bilan yaqinrok tanishishlariga, bolaning muvaffaqiyatlari, kamchiliklari, xulqi va sog'ligidagi o'zgarishlarni kuzatishga yordam beradi. O'qituvchining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbat qisqa muddatli bo'ladi, lekin bolaning kayfiyatini aniqlab olishda, uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ota-onalarning ishi ijtimoiy xarakterga ega va ixtiyorilikka asoslangan bo'lishi kerak. Shuning uchun bu faoliyatga jalg qilishning asosiy yo'li iltimos, ishontirish, maslahat berishdan iborat bo'lishi kerak. Mamlakatimizda bolalar to'g'risida, oila haqida g'amxo'rlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir.

«Jamiyki yaxshi narsalar bolalarimizga» shiori yanada baralla jaranglamoqda. Keyingi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir.

Xulosa:

Ma'lumki bola maktabga kelgunga qadar ham asosan oilada tabiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarash, huquqi va didiga tasir ko'rsatishi tabiiy holdir. Oila azolarining manaviy birligi, yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ota-onalarning o'ziga va bolalarga bo'lgan talabchanligi katta va kichiklarning o'zaro munosabatlari, do'stona muhit, ishonch va bir birini tushunish oila, maktab va jamiyatshilikning bolalar tarbiyasini olib boriladigan muhim omillardan biridir. Bunday birlikning ro'yobga chiqishida eng avvalo ota-onalarning faolligini oilaviy hayotda o'z ifodasini topadi.

Bola o'sib, ulg'ayar ekan, u avvalo oilada tarbiya topadi, so'ngra tarbiya mifik va jamoa birligida rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus-T.: 2019 yil, 19-mart. G'oziyev E.G. Ontogenet psixologiyasi,T.:
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida. 2020 yil
3. Babanskiy Y. K. «Pedagogika» M. 1988 yil.
4. . Munavvarov A. K. «Pedagogika» Toshkent 1996 yil.
5. Avloniy A. «Saylanma» Ikki jildlik. Toshkent., 1999 yil.
6. A. Zununov. Pedagogika tarixi. Darslik- 2002.
7. Babanskiy YU.K va boshqalar."Pedagogika", Moskva1998;
8. V.I.Turchenko. Doshkolnaya pedagogika Moskva 2013
9. Nishonov U., Tursunov I. «Pedagogika kursi» Toshkent 1997 yil.